



- 4.Рахимов М. РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ГЕНЕТИЧЕСКИХ РЕСУРСОВ ПРИ ВЫРАЩИВАНИИ СКОТА НА МЯСА //Scientific journal of the Fergana State University. 2023. №. 1. С. 158-161.
- 5.Alijonovich R. M. et al. EFFICIENT BEEF PRODUCTION TECHNOLOGY //Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities. 2023. Т. №. 4. С. 259-263.
6. Рахимов М., Абдурасулов Х. Интенсивная технология откорма молодняка привозного скота //Scientific journal of the Fergana State University. 2018. №. 6. С. 42-42.
7. Alijonovich, Rakhimov Madaminjon, and Javxarov Oybek Zulfikharovich. "Organization of full-value feeding of dairy cows in farm." *Gospodarka i Innowacje*. 24 (2022): 840-843.
- 9.Raximov M. Мясная продуктивность бычков привозного скота //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. D6. – С. 189-192.
10. Raximov, M., Muydinov, X., Abdullayeva, G., & Komiljonov, A. (2021, July). Peculiarities of the influence of climatic conditions on the morphological and biochemical composition of the blood of bulls of transported cattle. In Конференции.

BOSHLANG’ICH SINIF O’QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI “4K MODEL” ASOSIDA O’QITISHNING AFZALLIKLARI

Mahmudova Dilafruz Yoqubjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti magistranti
Email: d26982617@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi boshlang’ich sinf o’qish savodxonligi fanini o’qitishda “4K” modelidan foydalanishning afzalligi haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so’zlar: “4K” modeli, o’qish savodxonligi, boshlang’ich ta’lim, kompetensiyaviy yondshuv, ta’lim metodlari, kritik, kreativ fikrlash, kollabratsiya modellari.

ADVANTAGES OF TEACHING ELEMENTARY LITERACY LESSONS BASED ON THE "4K MODEL"

Makhmudova Dilafruz Yakubjon kizi
Master's student of Andijan State Pedagogical Institute
Email: d26982617@gmail.com

Abstract: This thesis provides information on the advantages of using the "4K" model in teaching reading literacy to primary grade students.

Keywords: "4K" model, reading literacy, primary education, competency-based approach, teaching methods, critical, creative thinking, collaboration models.

ПРЕИМУЩЕСТВА ПРЕПОДАВАНИЯ УРОКОВ ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ НА ОСНОВЕ "МОДЕЛИ 4К."

Махмудова Дилафруз Ёкубжон қизи
Магистрант Андижанского государственного педагогического института
Email: d26982617@gmail.com

Аннотация: В данном тезисе представлена информация о преимуществах использования модели "4К" в обучении чтению в начальных классах.

Ключевые слова: модель "4К," грамотность чтения, начальное образование, компетентностный подход, методы обучения, критическое, креативное мышление, модели коллаборации.

So’ngi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlar natijasida ulkan iqtisodiy o’sish ko’rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarida malakali kadrlar va yetuk mutaxasislarga bo’lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o’z-o’zidan yosh avlodning ta’lim va tarbiyasiga bo’lgan e’tiborni yanada



oshiradi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev kelajagimiz davomchilari bo’lmish yoshlarni ilm olishlari uchun barcha sharoitlarga ega zamonaviy ilm dargohlari bilan bir qatorda zamon talablari asosida takomillashtirilgan yangi darsliklar yaratilishi, dunyo miqyosida bugungi keskin raqobatga bardosh beradigan milliy ta’lim tizimini yo’lga qo’yish haqida qaror qabul qildilar. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-dekabrda 726-son qaroriga muvofiq bugungi kunda darslik va o’quv metodik majmualar sifatiga qo’yilayotgan talablarning ortishi ularning yaratish sohasining so’nggi yutuqlarini qo’llash, foydalanish uchun qulay bo’lgan manbaa mahsulotlarini ishlab chiqarish, dunyo miqyosida bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta’lim tizimini yo’lga qo’yish, darslik va o’quv qo’llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o’quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish O’zbekistonning yangi taraqqiy davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan rivojida sezilarli o’zgarishlar amalga oshirildi, zamonaviy yangi o’quv darsliklar yaratildi va qo’llanilmoqda[1]. Darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri – ularning 4K tamoyili asosida ishlab chiqarilganligidir. Ya’ni bu tamoyilda ma’lumotlarni yodlash yoki shunchaki o’qish va yozish bilan cheklanilmaydi. O’quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrd zarur bo’lgan hayotiy ko’nikmalarni ham o’rganadi. Avvalo, 4K modeli nima degan savolga javob topaylik.

“4K modeli” deganda, odatda ta’limning sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirishga qaratilgan asosiy to’rt komponentni anglatadi. Ular quyidagilar:

Kreativlik o’quvchilarni ijodkorlik va yangicha fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, innovatsion yechimlarni ishlab chiqish va muammolarni ijobiy yo’l bilan hal qilish ko’nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. O’quvchilar har bir fanga, yo’nalishga ijodiy yondashuvni o’rganadilar.

Kollaboratsiya - o’quvchilarni dars jarayonida, umuman olganda hayotda ham jamoaviy ish olib borish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu komponent o’quvchilarni o’zaro samarali muloqotga kirishuvda va bag’rikenglik kabi tishunchalarni shakllantirishda juda ahamiyatlidir.

Kommunikatsiya muloqot qilish qobiliyati bo’lib, o’quvchilarni bir-birini eshitishga va tushunishga yordam beradi. Bu orqali o’quvchilar o’zaro fikr almashadilar.

Kritik fikrlash - o’quvchilarni tanqidiy fikrlash qobiliyatini o’stiradi, muammolarni muhokama qilishga o’rgatadi, o’z fikriga ega bo’lishni va bu fikrni isbot eta olish ko’nikmalarini rivojlantiradi.

Pedagog O.Olloqovanning fikricha “Boshlang’ich sinflard o’rganiladigan ona tili va o’qish savodxonligi fani ko’p qirrali fan hisoblanadi. Bunda o’quvchilarning lug’at boyligi oshiriladi, nutq qoidalarini o’zgartirilishiga etibor beriladi, fikrni ongli ravishda izchil bayon qilish qobiliyatini rivojlantiradi, suhbatdoshiga munosib javob bera olish, eshitganlariga munosabat bildirish, o’g’zaki muloqot shakllarini bilish darajalarini oshiradi, o’qish sur’ati, yozma nutq ko’nikmalari tarkib toptiriladi, kognitiv qiziqishlari shakllantiriladi, ularning dunyo qarashi kengaytiriladi” deb ta’kidlab o’tadi.[2]

Pedagog O.Olloqova 4k modeli haqida quyidagi fikrlarni keltirib o’tadi; 4K tamoyilining ahamiyatli jihati shuki, bunda quruq ma’lumotlarni yodlatish, yoki shunchaki o’qitish, yozishni o’rgatish bilan birga o’qituvchi o’quvchilarga mantiqiy fikrlashi, tafakkuri, ijodkorligi, kommunikativligi ustida ham ishlaydi. O’quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo’lgan hayotiy ko’nikmalarni ham o’rganadi.

Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi shuni ko’rsatadiki, bolalar til materiallarini tushunishga qodir bo’lsada ulardan foydalanishni o’rgatish orqali nutqiy faollikni rivojlantirish mumkin.[3]

Hozirgi yangi darsliklar va metodlarning afzalliklaridan biri har bir mavzuga o’quvchining o’zi fikr bildirishi, jamoa bo’lib ishlashga oid mashqlarning mavjudligi va 4K modeli asosida ishlanganligidir. Bunda o’quvchilar mavzularga mantiqiy yondashadilar, jamoa bo’lib ishlash bilan birga ularda jamoadagi sheriklarini diqqat bilan tinglashni, uning fikriga mos javob berishni o’rganadi.

O’qish savodxonligi darslari aynan ushbu metodologik yondashuv asosida quvchilarni :

- eshitib tushunish;
- og’zaki fikr bildirish;
- mazmunni tahlil qilish;
- suhbatda ishtirok etish;

ijodiy qayta hikoyalash kabi faoliyatlar nutqiy rivojlanishga olib keladi.

O’qish savodxonligining asosiy maqsadi o’quvchilarning badiiy tajribasini orttirish, axborotni olish va undan foydalana qobiliyatini rivojlantirishdir.

Shuningdek, UNESCO tavsiyalariga ko’ra, zamonaviy ta’limda o’quvchilarni “savodli muloqot” ko’nikmalariga ega qilib tarbiyalash XXI asr kompetensiyalari asosi sifatida belgilanmoqda.[4]

Darhaqiqat, maktablardagi sifatli ta’lim ko’p jihatdan yaratilayotgan darslik va metodlarga bog’liq. Har bir dars o’quvchilarga qiziqarli o’yin va metodlar yordamida o’tishi lozim. Ayniqsa 4K metodi asosida



o‘quvchilarga dars o‘tish orqali har bir o‘quvchini darsga jalb qilish, muammoli masalalarni jamoaviy ishlashni o‘rgatish juda qulay. Bu bilan birga o‘quvchi suhbatdoshiga savol asosida o‘z fikrini bayon etishni, o‘z jamoasini himoya qila olishni, hamda barcha fanlardagi holatlar, ya’ni savollarga yangicha fikrlash orqali ijobiy yechim topish, g‘oyalar va axborotlarni to‘g‘ri talqin qilish va uyg‘unlashtirish kabi qobiliyatlarini oshiradi. Tanqidiy fikrlash orqali matnni tahlil qilish, kreativlik orqali mustaqil ijod topshiriqlarini bajarish, hamkorlikda ishlash orqali ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish va kommunikatsiya orqali o‘z fikrini bayon qilish, ancha ravon ifodalash imkoniyatlarini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim –tarbiya va ilm- fan sohalarini rivojlantirishning chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 06.11.2020-yildagi PF-6108-sonli qarori.
2. Olloqova O‘g‘iljon Mamanazarovna “O‘quvchilarning pragmatik kompetensiyasini shakllantirishda yangi avlod darsliklarining ahamiyati” //5.7.2023 “Pedagogik akmeologiya” xalqaro ilmiy metodik jurnali.173-bet.
3. Vygotskiy, L.S 1991. Pedagogik psixologiya. Moskva; Pedagogika 1991. 85-102-bet.
4. UNESCO, Global competence for sustainable development; Policy brief. Paris; UNESCO Publishing, 2018-yil 10-18-betlar.

**IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA CHO‘L-VOHA EKOSISTEMASI:
MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**

Negmatov S.Q.

Navoiy davlat universiteti

Tabiiy fanlar va tibbiyot fakulteti Geografiya kafedrası o‘qituvchisi.

Sayitmurodova S.S.

Navoiy davlat universiteti Tabiiy fanlar va tibbiyot fakulteti

Geografiya ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq tadbirlar va uning ta’sirida yuzaga keladigan cho‘llanish jarayoni, ekologik muammolarning ilmiy yechimi va innovatsion yondashuvlar ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Global isish, iqlim o‘zgarishi, energiyani tejash, cho‘llanish, “Saxel fojeasi”, irrigatsion cho‘llashuv, sug‘orma dehqonchilik, ekologik ta’lim.

**DESERT OASIS ECOSYSTEM IN CLIMATE CHANGE:
PROBLEMS AND SOLUTIONS**

Negmatov S.Q.

Navoi State University Teacher of the Department of Geography,
Faculty of Natural Sciences and medicine

Sayitmurodova S.S.

Navoi State University Faculty of Natural Sciences and medicine
Geography education course 2nd year student

Annotation: this article analyzes the activities related to climate change and the desertification process that occurs under its influence, the scientific solution of environmental problems and the importance of innovative approaches.

Key words: Global warming, climate change, energy conservation, desertification, “Saxel tragedy”, irrigated desertification, irrigation farming, environmental education.

**ЭКОСИСТЕМА ПУСТЫНИ-ОАЗИСА В УСЛОВИЯХ ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА:
ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ**

Негматов С.К.

Навоийский государственный университет